

**РЕЗЮМЕ**

Ушбу мақолада туркий олимлар томонидан қорақалпоқ тилини ривожлантириш ва шакллантириш тарихи, шунингдек, уларнинг туркий тилларни, хусусан, қорақалпоқ тилини ривожлантиришга қўшган бекиёс ҳиссаси кўриб чиқилади. Алоҳида эътибор Н.Баскаковга - қорақалпоқ грамматикаси назарияси ва асосчисига қаратилмоқда. Шунингдек, қорақалпоқ графикаларини араб графикасидан лотин ва кирилл ёзувларига ўтиши ҳақида мулоҳаза юритилади are briefly described.

**РЕЗЮМЕ**

В данной статье рассматривается история развития и формирования каракалпакского языка учёными-тюркологами, а также их невосомый вклад в развитие тюркских языков, в частности, каракалпакского языка. Отдельное внимание уделяется и Н.Баскакову - теоретику и основоположнику каракалпакской грамматики. А также переход каракалпакской графики с арабско-го на латинский и на кириллицу.

**SUMMARY**

This article examines the history of the development and formation of the Karakalpak language by turkologists, as well as their weightless contribution to the development of turkic languages, in particular, the Karakalpak language. Special attention is paid to N.Baskakov, the theorist and founder of the Karakalpak grammar. As well as the transition of karakalpak graphics from arabic to latin and cyrillic.

**GAPNING STRUKTURA TURLARI - ABDURAUFI FITRAT TALQINIDA**

**S.Ashirboev** – filologiya fanlari doktori, professor

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti*

**Tayanch soʻzlar:** nahv, sarf, sintaksis, toʻliq gap, tugal gap, leksik gap, gap boʻlaklari, zarur boʻlak.

**Ключевые слова:** грамматика, наречие, синтаксис, полное предложение, полное предложение, пропущенное предложение, части речи, необходимая часть.

**Key words:** grammar, adverb, syntax, complete sentence, complete sentence, missing sentence, parts of speech, necessary part.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida Abduraufi Fitratning lingvistik merosini oʻrganishga qiziqish kuchaydi. Buning oʻziga yarasha sabablari bor edi, yaʼni uning asarlari sobiq Ittifoq davrida koʻp yillar qatagʻon qilingan, kutubxonalardan olib qoʻyilgan edi. Bu esa XX asr boshlarida yaratilgan ilmiy merosdan foydalanish imkoniyatlarini yoʻqqa chiqargan. Istiqloq yillarida uning tilshunoslik sohasidagi qarashlari ilmiy jihatdan oʻrganila boshlandiki, uni davrimizning eng eʼtiborli tadbirlari deb hisoblash kerak. Shuni alohida taʼkidlash mumkinki, garchand, Abduraufi Fitrat asarlaridan foydalanish taqiqlab qoʻyilgan boʻlsa-da, uning sintaksis (umuman, tilshunoslik) sohasidagi fikr va mulohazalari, u qoʻllagan terminlar oʻz davrida ham, keyinchalik ham adabiyotlarda aks etib keldi. Bu jarayon, bizningcha, ikki yoʻl bilan amalga oshirilgan: biri Abduraufi Fitrat asarlarining xalqimiz shaxsiy kutubxonalarda (yashirib boʻlsa ham) saqlanib qolgan nusxalari keyingi davrda ayrim tilshunoslarimizga yetib kelgan, ikkinchisi, Abduraufi Fitrat asarlaridan bevosita foydalanish taqiqlangan boʻlsa-da, uning gʻoyalari oʻz davri va keyingi davr sintaksisiga oid boshqa asarlarda davom ettirilgan. Shu maʼnoda A.Nurmonov fikrlari asoslidir [Nurmonov 2002, 164].

Abduraufi Fitrat yashagan davr ixtilofli boʻlganligi va ilmiy faoliyat yuritish uchun sharoitlar yetarli boʻlmaganligiga qaramay, undagi vatanparvarlik hisi, millatiga boʻlgan muhabbati, davr ilmiy qashshoqligiga qarshi kurashish ishtiyoqi uni oʻzbek tiliga nisbatan beparvo qoldirmadi. Buni Abduraufi Fitratning: “*Men turk ulusigʻa oʻz boshli (mustaqil) bir til va shu tilda yozilgan ilm istayman*”, [Fitrat 3006, 128] - degan soʻzlari isbotlab turibdi. Abduraufi Fitrat tilning ilmiy masalalarini tavsiflar ekan, unda, avvalo, oʻz original tizimini yaratishga, tashabbus koʻrsatishga intilgan.

**Matn.** Abduraufi Fitrat sintaktik sistemasidagi gapning boʻlaklari, kommunikativ boʻlaklar, soʻz birikmasi talqini boʻyicha avval ham fikr yuritilgan, ushbu maqolada uning toʻliq va toʻliqsiz gap toʻgʻrisidagi qarashlari tahlil qilinadi.

Toʻliq va toʻliqsiz gapni Abduraufi Fitrat “Gap turlari” mavzusida oʻrganadi va toʻliq gapni **tugal gap** va toʻliqsiz gapni **eksik gap** terminlari bilan yuritadi. (eksik soʻzini Abduraufi Fitratning “Tanlangan asarlar”ini nashrga tayyorlovchilar **atov gap** deb notoʻgʻri koʻrsatgan, qarang: 329-bet). Abduraufi Fitrat qoʻllagan bu terminlar mohiyatni anglatishda noqulay boʻlmasa-da, ular uchun asos boʻlgan oʻsha soʻzlar tushunchani toʻliq aks ettira olmas edi, chunki **tugal** soʻzida toʻliq maʼnosidan koʻra, tugallanish (poyoniga yetish) maʼnosi ustuvor, **eksik** soʻzi (u til tarixida **eksik**, **eksuk**, **uksuk** variantlarida qoʻllangan) **kam**, oz maʼnolarida qoʻllangan, shunday boʻlsa-da, Abduraufi Fitratning **tugal**

va **eksik** soʻzlaridan termin sifatida foydalanishiga haqi bor edi, chunki hozirgi tilshunoslikda qoʻllanayotgan aksariyat terminlar ham soʻzning bosh maʼnosiga asoslangan emas. Abduraufi Fitrat tomonidan toʻliq va toʻliqsiz gapga berilgan taʼriflar M.Qurbonova va A.Nurmonovlar tomonidan keltirilgan va qisman tahlil qilingan [Qurbonova 1996, 15].

Abduraufi Fitrat toʻliq gapga taʼrif berishda sof mantiq jihatdan yondoshadi. Uning taʼrifidagi “oʻyning butun boʻlaklari gapdagi soʻzlardan anglashilsa” (39-bet) iborasi aslida fikrning barcha boʻlaklari - subʼekti, obʼekti va predikatlarining muayyan soʻzshakllar - gap boʻlaklari bilan reallashishi haqida borayotganligini nazarda tutish lozim, bu iboralar boshqa izoh, yaʼni “gapdagi soʻzlar oʻydagi maʼnolarning hammasini ifoda qila olsa” iborasi bilan yanada oydinlashtiriladi. Aslida bu taʼrifni, umuman, gapga ham, toʻliqsiz gapga nisbatan ham qoʻllash mumkin, chunki «toʻliqsiz gap» tushunchasi kontekstual, situativ holatda fikrimizdagi barcha argumentlarni anglata oladi.

Abduraufi Fitrat talqinidagi “eksik gap” A.Nurmonov taʼkidlaganidek [Nurmonov 2002, 161], faqat toʻliqsiz gap emas, shu bilan birga bir bosh boʻlakli gapni ham ifoda qiladi, lekin bunday gapni ham mantiq qoidalariga asosida tushuntiradi, yaʼni, uningcha «oʻyning boʻlaklari boʻlgʻan maʼnolarning (gap semantikasi - S.A) bir-ikkitasiga gapdagi soʻzlardan emas, **boshqa vositalar** bilan anglashilsa, shuning uchun shul maʼnolarni ifoda qilgʻuchi soʻzlar gapda aytilmay qolsa” (40-bet) “eksik gap” boʻladi. Bu taʼrifdan quyidagi mantiqiy xulosalar kelib chiqadi:

1. Fikr toʻliqligiga ishora bor.
2. Soʻzlar (gap boʻlaklari) ishtirok etmasa ham, uning oʻrni maʼlum.
3. Gapda ishtirok etmagan soʻzlar (gap boʻlaklari)ni kompensatsiya qiladigan “boshqa vositalar”, yaʼni kontekst yoki situatsiya mavjud. Taʼkidlash joizki, Abduraufi Fitrat tilga olgan “boshqa vosita” iborasi oradan 70 yil oʻtgandan soʻng yana takrorlandi.

Toʻliq gap va toʻliqsiz gap muammosi qachon boshlanishidan qatʼiy nazar, hamon oʻzbek va jahon tilshunosligi tadqiqotlari, darslik va qoʻllanmalaridan tushmay kelmoqda [Sovr. rus. yaz. 2001, 363]. Oʻzbek tili sintaksisiga oid adabiyotlarda gap va toʻliq gap chegarasi toʻgʻrisida fikrlar ham eʼtiborga molik emas. Ilmiy sintaksisning boshlanishi boʻlgan A.Gʻulomov va M.Asqarovalarning asarlarida ham toʻliq gapni toʻliqsiz gapga oppozitsiya qilgan holda, unga “*biror boʻlakning ifodalanmasligi – “tushib qolganligi” sezilmasligi, zarur boʻlaklar oʻz ifodasini topganligi*” bilan izohlanadi [Gʻulomov, Asqarova 1961, 148]. Ayni shu qoida keyingi nashrlarda ham saqlangan [Gʻulomov, Asqarova 1987, 127]. Bu qoidaga koʻra, **biror boʻlak** vazifasini qaysi boʻlak

bajaradi, **zarur bo'lak** birikmasi terminologik ma'noga egami? degan savollarga javob bera olmasligi ko'rinib turibdi. Oliy maktab uchun yaratilgan boshqa asarlarda ham to'liq gapning "to'liq"lik definitsiyasi yo'q. Mavjud qoidalarga amal qilinadigan bo'lsa, to'liq gapda barcha gap bo'laklari aks etishi kerak. Ammo Abdurauf Fitrat keltirgan misollarda ham, hozirgi o'zbek tili sintaksisiga oid asarlardagi misollarda ham bu talabga to'liq javob beradigan misollar yo'q. Aftidan, *to'liq gap, to'liqsiz gap* tushunchalarining farqlanishi faqat formalizmga ko'radir. Bizning nazarimizda, gapni to'liq va to'liqsiz turlarga ajratish ilmiy natija bermaydi, lekin adabiyotlarimizda hamon to'liqsiz gap terminini uchratib qolamiz.

Endi Abdurauf Fitratning gapning to'liqsizligi ochiqqlamasiga to'xtalamiz. Bu masalani Abdurauf Fitrat "Gap bo'laklarining tushib qolishi" sarlavhasi ostida o'rganadi va "Gapning turlari" to'g'risida fikr bayon qila turib, "eksik gap" izohini (29-bet) beradi. Bu fikr "Nahv" asarining 1927-yilgi nashri 28-32-betlarida keltiriladi.

Unda quyidagi holatlar aks etgan:

1. "Eksik gap"ning xususiyati oydinlashtiriladi. Uningcha, gapning "...o'n asosli bo'lagidan birta-yarimtasining ma'nosi **quloq, ko'z** kabi vositalarning yordami bilan anglashilib qolsa, gapning shu bo'lagi aytilmay qoladi" (28-b). Ma'lum bo'ladiki, to'liqsiz gapning xususiyatini belgilashda ekstralingvistik faktorga tayanadi. Abdurauf Fitrat tomonidan aytilgan va keyinchalik A.G'ulomov, M.Asqarovalar takrorlagan "boshqa vositalar" tushunchasi shu o'rinda (**quloq, ko'z** ekanligi) aniq bo'ladi.

2. Kesimning "ora-sira tushib qolishi" qayd qilinadi: *Kim keldi? – Karim. Nima tushdi? – Tosh.* Bunday sintaktik vaziyatda kesimning qo'llanmasligi uchun "ora-sira" so'ziga hojat yo'qligini ta'kidlab qolamiz. Bunday hol normal sintaktik vaziyat hisoblanishi ma'lum.

Abdurauf Fitrat kesimning qo'llanmasligi bilan bog'liq ba'zi misollarni tahlil qilar ekan, uning gap bo'laklarini tayin qilishda sintaktik pozitsiyaning hal qiluvchi roli to'g'risidagi dastlabki fikrlarni bildirganini payqash mumkin. *Ahmad bu kun uyda, erta qishloqda. Kitob menda kabi* gaplarda "kesim aytilmay qolgan", "Uning o'rnig'a o'rin to'ldirg'ichi o'tgan" deb yozadi. Demak, *uyda, qishloqda* (aslida o'rin holi), *menda* (afsuski, uni ham "o'run to'ldirg'ichi" demoqchi) so'z shakllarini kesim deb qarashga yaqinlashadi [Abdurahmonov 1973, 95]. Shu kabi ijobiy fikrlari bilan birga "Yaxshi otqa bir qamchi, yomon otqa ming qamchi" misoliga ijodiy yondosha olmagan va bu gaplarda kesim tushib qolganligini qat'iy ta'kidlaydi.

3. Eganing ham "ora-sira" tus'ib qolishi haqida ma'lumot beradi. Abdurauf Fitrat implitsit ega va diskurslardagi aytilmagan egani farqlay olgan, lekin ularni bir xil hodisa sifatida izohlaydi. Dialogda *Ahmat keldimi?* so'rog'iga *keladir* javobi berilganda, eganing tushib qolishini ko'rsatgan holda, *kema* (so'zlashuv nutqi talaffuzi olingan, aslida *kelma*), *qoch, keldim* so'z shakllarining har qaysisini bir gap deb qaraydi hamda uni "**kema, qoch deganda, buyurilg'an kishiga qarab aytganimiz uchun**", "**keldim**" deganda **m** harfi (shaxs-son qo'shimchasi – A.S.)dan anglashilgani uchun egani aytishga hojat qolmaydir (30-b), deb izohlaydi. Ko'rinadiki, bu o'rinda u implitsit ega haqida fikr yuritmoqda. Bu o'rinda ega implitsitmi, yo'qmi, qat'iy nazar, gap mavjudligi to'g'risida fikr yuritilishi lozim edi.

Maqolamizning avvalida Abdurauf Fitratning 10 asosli gap bo'lagidan birortasining tushib qolishi va ularning ma'nosi **quloq, ko'z** kabi vositalar bilan anglashilishi haqidagi fikrini keltirgan edik. U, garchand, **quloq** vositasini tilga olmasa-da, **ko'z** vositasida aytilmagan bo'lakni anglash mumkinligini misollar asosida tushuntiradi. Bunga *yiqli* so'zini keltiradi va bolaning yiqilganini ko'rgan kishilar bolani ko'rib turganligi uchun *yiqli* so'zining aytishlari normal holat ekanligini aytadi.

Demak, bu situativ xususiyatni to'g'ri anglay olgan. Shu o'rinda o'n asosli gap bo'lagi tushunchasiga izoh berilishiga hojat bor. U gapda 10ta gap bo'lagi mavjud deb hisoblaydi va ular ega, kesim va 8ta - tus'um, borish, chiqish, o'run, birgalik, chog', nechunlik, nechuklik "to'ldirg'ich"laridir. Bu tasnifga keyingi ishlarimizda to'xtalamiz.

Dialogik nutqda ega va kesim bo'laklarining tushib qolishi natijasida to'liqsiz gaplarning shakllanishi keyingi davr adabiyotlarida rivojlantirildi [3:110].

Abdurauf Fitratning to'liqsiz gap to'g'risidagi ilk ilmiy qarashlari va uning keyingi davrda rivojlantirilishi bilan bog'liq ravishda ayrim munozarali masalani o'rta tashlagan bo'lar edik:

1. Gapning to'liqligi to'g'risidagi hozirgi davr adabiyotlarida aytib kelinayotgan fikr qanchalik ilmiy haqiqatga yaqin. Gapning to'liqligi va to'liqsizligi tushunchasining ilmiylikdan holi ekanligi shu masalada fikr yuritilgan asarlarda ham ixtiyor va beixiyor o'z haqiqatini topgan. Aslida ham, to'liqsiz gapga nisbatan gap degan terminni ishlatar ekanmiz, uning talablariga javob bera olganligini tan olishimiz kerak. Zero, «*Har bir gap odatda nutq ichida yashaydi, shu bilan uning mazmuni yana ham konkretlashadi, shuningdek, gaplarning bir-biri bilan bog'lanishi ular ba'zi bo'laklarning takrorlanmasligiga, shusiz ham fikrning anglashilishiga, ifodalaniishi, ixcham bo'lishiga imkon beradi*» [G'ulomov, Asqarova 1987, 149]. Bu fikr, bizningcha ham, to'liqsiz gap termini va tushunchasiga ehtiyoj qoldirmaydi. Shu jihatdan N.Mahmudov va A.Nurmonovlarning «O'zbek tilining nazariy grammatikasi»da bu mavzuda fikr yuritilmaganligini tushunish qiyin emas.

2. "To'liqsiz gap" tushunchasi ilmiylik tamoyillariga javob bera olmas ekan, unda shu sintaktik hodisani qanday nomlash mumkin? Uni gap sintaktikasiga ko'ra, elliptik yoki to'liqsiz, mazmuniga ko'ra, situativ gap deb yuritish lozim bo'ladimi? Bu masalani nazariy sintaksis tadqiqotchilariga havola qilib qolamiz.

3. Gap qanday strukturada bo'lmasin, uning asosiy vazifasi fikr ifodalash va bayon qilish ekan [Mahmudov, Nurmonov 1995, 37], nega gap strukturasi va turlarini qaysidir bo'lakning "tushirilishi", "yashirinishi"ga qarab, uning sintaktik tabiatini belgilaymiz?

4. Abdurauf Fitrat keltirgan "Yaxshi otqa bir qamchi, yomon otqa ming qamchi" misoli va Unda har turli ko'katlardan bor, Unda har turli ko'katlar bor kabi gaplardagi so'z shakllarning sintaktik maqomini belgilashda yana qandaydir nazariya zarurdir? Bu o'rinda gap "Unda har turli ko'katlardan bor" [G'ulomov, Asqarova 1987, 149] gapida ko'katlardan so'z shaklini to'ldiruvchi deb qarash haqida bormoqda. Bizning nazarimizda, gapni gap bo'laklariga ajratishdagi pozitsion yondashuvga nisbatan yangicha qarashlarga hojat bor. Bunda biz ko'katlardan bor kabi qo'llanishda chiqish kelishigi affiksi qatnashishidan qat'iy nazar, shu so'zshaklning o'zi ega pozitsiyasida ekanligini ta'kidlagan bo'lar edik, chunki uni biz transformatsiya qiladigan bo'lsak, ko'katlardan har xili bor mazmunini tashiyotganligini ko'ramiz. Bu esa ham semantik, ham pozitsion egani naqd qilib qo'yadi.

Abdurauf Fitrat asarida to'liq va to'liqsiz gap to'g'risida fikr yuritishi, albatta, o'z davri an'anasiga ko'radir. Bu hozir ham an'anaviy tilshunosligimizning o'rganish obyekti bo'lib qolgan. Abdurauf Fitrat asaridan bir muncha oldin nashr qilingan "O'zbekcha til saboqlig'i" asarida ham bu masala aks etgan bo'lib, shu hodisa nisbatan aniqroq o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra: «*Ega bilan kesimning gapda bor bo'lishlig'i bilan ergash bo'laklar (ikkinchi darajali bo'laklar - A.S.)dan biri yo bir nechasi bo'lg'an gap to'liq gap deb ataladi*» [O'zbekcha til saboqlig'i 1926, 18]. Demak, "to'liq gap" terminining qo'llanishi tarixi shu asar nomi bilan bog'lanadi.

Abdurauf Fitratning tugal (to'liq –S.A) gapga bergan ta'rifida mantiq jihatdan, "O'zbekcha til saboqlig'i" dagi ta'rifda esa sof sintaktik jihatdan yondashilganligi ma'lum bo'lmoqda. "To'liqsiz gap" termini ham dastlab "O'zbekcha til saboqlig'i" da qayd qilinadi va unga ham sof sintaktik jihatdan yondashiladi, unga ko'ra: "Gapning bosh bo'laklari (ega va kesim)dan birisi yo har ikkisi bo'lmasa ham ergash bo'laklardan birining o'rinbosarlig'i bilan kuzatilgan fikr anglashilg'an gap «to'liqsiz gap» deb ataladi" [O'zbekcha til saboqlig'i 1926, 19]. Bu ta'rif, albatta, dialogik nutqdagi to'liqsiz gaplarga tegishlidir. To'g'ri, bu ifodada nazariy kamchilik ham ko'zga tashlanadi, ya'ni ega yoki kesim qo'llanmasa, uning vazifasini ergash bo'lak (ikkinchi darajali bo'lak) egallashi haqida fikr yuritilmoqda, bu fikrlaridan gap bo'laklarining pozitsiyasi haqidagi tushunchaga ega

emasligi namoyon bo'ladi, zero, bu nazariy qoidani 20-yillar tilshunolaridan talab qilib bo'lmas edi ham.

#### **Xulosa.**

Abdurauf Fitrat to'liq va to'liqsiz gaplar haqida fikr yuritar ekan, uni o'ziga xos ravishda terminlashtirishga erishgan. Uning nazariy jihatlarini yoritishda esa ko'proq mantiq qoidalariga asoslangan. Bunday yo'l tanlashga qanday asoslar bor edi, degan savol tug'iladi va uni ham Abdurauf Fitratning Moskvadagi faoliyati bilan bog'lash mumkin bo'ladi [Ashirboev 2010, 52]. So'zsiz, u ish va yashash sharoitida Rossiyaning ilmiy maktablarida yaratilgan tilshunoslikka oid, xususan, sintaksisga oid asarlar bilan tanishishga harakat qilgan va undagi logizm, ayniqsa, F.I.Buslaev logizmi Abdurauf Fitratning sintaktik qarashlariga tasir o'tkazgan bo'lishi ehtimoldan holi emas [Berezin 1979, 106].

#### **Adabiyotlar**

1. Abdurauf Fitrat. O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Nahv. – Samarqand-Toshkent: «O'zdamnashr», 1927. (arab grafikasida).
2. Абдурауф Фитрат. Тилимиз. // Танланган асарлар. –Тошкент: "Маънавият", 2006.
3. Абдурахмонов Ф., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: "Ўқитувчи", 1979.
4. Аширбоев С. Абдурауф Фитратнинг синтактик системасидан // Стилистика ва прагматика. –Самарқанд: 2010.
5. Березин Ф.И. История русского языкознания. –Москва: "Высшая школа", 1979.
6. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1995.
7. Минаввар Қори, Қайюм Рамазон, Шорасул Зуннун. Ўзбекча тил дарслиги. IV бўлим. Самарқанд-Тошкент: "Ўздавнашр", 1926 (arab grafikasida).
8. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: "Ўзбекистон", 2002.
9. Современный русский язык. Теория. Анализ языковых единиц. – Москва: Академия, 2001.
10. Курбонова М. Фитрат – тилшунос. –Тошкент: Университет, 1996.
11. Фуломов А.Ф., Аскарова М.А. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1961.
12. Фуломов А.Ф., Аскарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: "Ўқитувчи", 1987.

#### **REZYUME**

Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba" sirasidagi "Nahv (sintaksis)" asarida o'zbek tili sintaksisining o'z zamonasidagi dolzarb masalalarini ko'tarib chiqqan edi. U ushbu asarida so'z birikmasi sintaksisi, sodda gap, uning sintaktik bo'laklari va gaplarning struktura turlari: bir va ikki bosh bo'lakli gap, to'liq va to'liqsiz gap to'g'risida o'z qarashlarini ilgari surgan. Albatta, bunga uning Sankt-Peterburgdagi ilmiy hayoti tajribalari ish bergan. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning to'liq va to'liqsiz gap to'g'risidagi tizimi to'g'risida gap boradi, bu tushunchalarning Fitrat tomonidan terminlashtirilishiga alohida ahamiyat beriladi. Maqola manbasi uchun "Nahv" asarining 1927-yil (O'zdamnashr) nashri olindi.

#### **РЕЗЮМЕ**

Абдурауф Фитрат в своей книге «Нахв (синтаксис)» из серии «Опыт над правилами узбекского языка» поднял актуальные в свое время вопросы синтаксиса узбекского языка. В этой работе он изложил свои взгляды на синтаксис словосочетания, простого предложения, его синтаксических частей, а также на структурные типы предложений: односоставные и двусоставные предложения, полные и неполные предложения. Конечно, это было связано с опытом его научной жизни в Петербурге. В этой статье обсуждается система полной и неполной речи Абдурауфа Фитрата с особым акцентом на терминологию этих понятий Фитрата. Источником статьи является издание «Нахв» (Уздавнашр) 1927 года.

#### **SUMMARY**

Abdurauf Fitrat, in his book "Nahv (syntax)" series "An Experiment on the Rules of the Uzbek Language", raised topical issues of Uzbek language syntax in his time. In this work, he put forward his views on the syntax of a phrase, a simple sentence, its syntactic parts, and the structural types of sentences: one- and two-part sentences, complete and incomplete sentences. Of course, this was due to the experience of his scientific life in St. Petersburg. This article discusses Abdurauf Fitrat's system of complete and incomplete speech, with special emphasis on Fitrat's terminology of these concepts. The source of the article is the 1927 edition of Nahv (Uzdamnashr).

### **KARAKALPAKISMS AND RUSSIAN-LANGUAGE FICTION TEXT**

**D.U.Dospanova** – candidate of philological sciences, docent

*Tashkent University of Information Technologies*

*named after Mukhammad al-Kharezmiy*

**Tayanch so'zlar:** Qoraqalpog'izmlar, o'zaro boyitish, o'zaro ta'sir, o'zaro almashish, so'z boyligi.

**Ключевые слова:** Каракалпакизмы, взаимообогащение, взаимовлияние, заимствования, лексика.

**Key words:** Karakalpakisms, mutual enrichment, mutual influence, borrowing, lexicon.

When examining a literary text, it's crucial to recognize the work's language's unique traits, the vocabulary that acts as the principal tool for achieving maximum expressiveness of the narrated events, whether real or imagined.

Interlanguage cross-fertilization and cross-influence is a bilateral process, meaning it is a sort of language interaction in which all languages involved, such as Russian and Karakalpak, are enriched. More and more Karakalpak vocabulary are becoming familiar to Russian-speaking readers as a result of the translation of works by Karakalpak writers and poets conveying the people's peculiar way of life and culture into Russian.

The study of unregistered words in a writer's language or in his particular work, on the other hand, is of interest to lexicology as well as other fields of language science (word

formation, grammar, stylistics, etc.). The study of their structure and functioning idioms in the language of creative works provides useful factual information for solving some general linguistic problems, such as speech activity theory and system-level foundations of text generation [3,5].

It is always possible to identify a collection of terms in the language of a work of fiction that are not listed in dictionaries for various reasons. Individual writers' numbers, statistical evaluations, and the role it plays in a work's system of semantic-stylistic and figurative-tropic methods of language will all be different.

Only in the 1990s of the twentieth century did the Russian language begin to resemble the Karakalpak lexicon. For example, A. Umarov produced "Dictionary of Karakalpak words in Russian text" [7], which comprises over